

**Muhammadjonova Mohinur  
Farg‘ona davlat universiteti  
San’atshunoslik fakulteti  
“Musiqa ta’limi” yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi**

---

## **DAMLI CHOLG’ULAR HUSUSAN NAY CHOLG’U SOZINI YARALISH TARIXI**

**Annotatsiya:** Qadimgi odam inson ovozidan kuchliroq tovush beradigan, ochiq havoda chalinadigan cholg‘ularni ixtiro qilgan va uni ovda, harbiy yurishlarda, to‘y, sayil, bayram va boshqa turli yig‘inlarda qo‘llash odat tusiga kirgan. Ushbu maqolada damli cholg‘ular, nay cholg‘u sozini yaralish tarixi haqida ko‘ramiz.

**Kalit so‘zlari:** Nay, sozanda, mizmar, surnay, daf, nog‘ora, qo‘shnay, damli cholg‘ular, qomusiy risola, san’at asarlar, karnay.


**Аннотация:** Древние люди изобрели уличные инструменты, звучавшие громче человеческого голоса, и их было принято использовать на охоте, в военных походах, на свадьбах, вечеринках, праздниках и других собраниях. В этой статье мы поговорим об истории формирования духовых инструментов и звучании флейты.

**Ключевые слова:** Флейта, музыкант, мизмар, сурнай, даф, нагора, кошнай, духовые инструменты, музыкальные произведения, произведения искусства, карнай.

---

### **Kirish**

Damli cholg‘ular Eramizdan avvalgi III-I asrlarda ham naysimon, tilli va karnaysimonlarga tasniflangan. Qadimgi Misr, Bobil va boshqa Sharq mamlakatlarida damli cholg‘ular haqida ma’lumot beruvchi tasviriy san’at asarlari mavjud bo‘lib, ular haykalchalar va arxeologik topilmalarda o‘z aksini topgan. Qadimgi Misr tarixiy yodgorliklaridan ma’lumki, yuksak qadrlangan harbiy sozandalarga kohinlar qatoridan o‘rin ko‘rsatilgan, hatto jang maydonida sozandalar o‘ldirilmas balki, asir olinib, o‘z kasbi doirasida xizmat qilishga buyurilgan. Iskandar Zulqarnayn davrida qo‘shinlar jipslashgan holda, tartib bilan yurishi va dushmanga dahshat solish uchun turli hajmdagi nog‘oralar, karnay va burg‘ular qo‘llanilgan. Bir rivoyatda aytishicha, Iskandar Aflatunga: «Sen shunday bir cholg‘u yasaginki, uning sasi o‘n to‘rt chaqirim uzoqdan eshitilsin, dushman yuragiga qo‘rquv va dahshat solsin», – debdi. Aflatun o‘ylab-o‘ylab oxiri katta qasqonning ikkala tomoniga mol terisini qoplabdi-da, uni tarang torttirib, ko‘s nog‘ora yasabdi. Nog‘orani bir tomonidan urilgan zarb, ikkinchi tomonidagi teriga ta’sir qilgan holda aks-sado berib, «Iskandar! Iskandar!» – degan dahshatli ovoz chiqar emish. Hozirgi davrdagi ikki tomoniga teri qoplangan barcha barabanu dovullarning yaratilishi shundan qolgan ekan. Quyidagi miniyatyrada Iskandar va Doro qo‘shinlarining jangi aks ettirilgan bo‘lib, forslar qo‘shinining orqa qismida tirsakli bargul deb nomlanadigan karnay va karnaychi rasmi tasvirlangan. U o‘z qo‘shinini jangovar chaqiriq bilan jangga chorlamoqda va dushman yuragiga g‘ulg‘ula solmoqda.



Qadimgi Xorazm hududidagi «Qo‘y qirilgan qal‘a» (miloddan oldingi IVIII asr), «Tuproq qal‘a» (I-III asr), «Qirq qiz qal‘a» (V-VI asr) istehkomlaridan topilgan nay, mizmar, surnay, daf va nog‘oraga o‘xhash asl nomlari saqlanmagan cholg‘u sozlari ushlagan mutriba ayol va erkaklar tasvirlangan tangachalar, ganch haykalchalar hamda Ayrитomdan topilgan haykalchalardagi cholg‘ular tasviridan biz ularning qaysi turga mansubligini aniqlashimiz mumkin. Ammo ularning o‘sha paytda qanday atalgani ma’lum emas. Ya’ni nomlari hozirgacha saqlanib qolmagan.

### Muhokamalar va natijalar

Samarqandning Urgut tumani Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan miloddan besh ming yil oldingi suyakdan ishlangan besh teshikli nay qisman saqlangan bo‘lib, o‘sha davrda bunday tovush ko‘lamiga ega cholg‘uda qanday kuylar chalinganligini tasavvur qilish mumkin. V-VII asrlarga taalluqli Namanganning Pop tumanidan topilgan, qamishdan yasalgan qo‘shnay esa hozirgi qo‘shnaylardan farq qilmaydi.

Annikov laganidagi yetti karnaychi rasmiga qarab va bu tasvirdagi dramatik holatdan kelib chiqib, sozandalar tomonidan «Qinni Siyovush» ya’ni Siyovushning motamiga bag‘ishlangan marsiya chalinayotganligi taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda karnay, nafir, shox nafir, bug‘, burg‘u, tashdorlar sopol karnayi va boshqa cholg‘ulardan foydalanilgan degan xulosaga kelish mumkin. Eramizning VII-X asrlariga kelib arablar istilosini bilan birga yangi an‘analar taraqqiy topa boshlaydi. Sharq xalqlarida inson nafasi ya’ni – dami ilohiy va shifobaxsh deb qaralgan. Bunday qarashlar islomdan oldingi otashparast, kohin va qom(shaman)larda ham bo‘lgan. Bu haqda Qur‘oni Karimnning «Yosin» surasi 51-oyatida «Va nufixa fis-suri faziahum mina-lajdasi ila

robbihim yansilun» manosi: «qiyomat soati kelib farishta Isrofilning suri chalinishi bilan banogoh ular qabrlaridan parvardigorlari (huzuriga hisobkitob uchun) sug‘urilib chiqurlar», deyiladi. Bunda nufixa – puflanmoq, ma’nosida bo‘lib, nafas ya’ni puflash orqali o‘liklar tirlishi aytimoqda.

Bu fikrni quvvatlagan holda Abdurahmon Jomiy:

Ma’ni samo’ ki mikunad, fakih,

G‘ofil az sur va nufihat fih.

Ma’nosi: ey fakih, sa’moni (musiqani) man qiluvchilar sur va unga puflanishidan g‘ofildurlar deb, nafas orqali nag‘ma-kuy hosil qilinib, u insonga jon bag‘ishlashini g‘ofil va johil bandalar bilmasliklarini yana bir bor ta‘kidlaydi. Bu fikrlarni tilshunos olim Nafas Shodmonov «Tafakkur» jurnaliga yozgan «Musiqa bu uyg‘onish demak» maqolasida yanada rivojlantirgan<sup>1</sup>.

Sharq uyg‘onish davrining olimlari o‘zlarining qomusiy asarlarida musiqani matematikaning bir bo‘lagi deb hisoblaganlar va o‘sha asarlarida o‘z davrida istifoda qilingan cholg‘ular nomlarini ham keltirganlar. Shundaylardan – Markaziy Osiyolik qomusiy olim Abu Nasr Farobi (870-959) o‘z risolalarida mizmar, mizomir nomli (bulamonga o‘xhash) damli cholg‘ular haqida axborot bergen bo‘lsa, Kotib Xorazmiy o‘zining «Mafatix al ulum» asarida torli va urma cholg‘ular bilan birgalikda surnay va bulamon sozlarini ham keltirib o‘tgan. Mahmud bin Ma’sud Qutbiddin ash Sheroziy (1236-1310)ning «Durrat ut-toj li-g‘urrat id-diyboj» (Shoh tojini bezovchi noyob dur) qomusiy risolasida damli cholg‘ularni tovush hosil etilishi bo‘yicha uch turga tasniflangan. Bular xushtaksimonlar, tilli-dudikli va karnaylardir. Shuningdek, u cholg‘ular pardalarini ijrochi og‘zi tomoniga qarab ochilib borishi natijasida tovushning balandlashuvi va safillar (pereduvanije)ga doir ma’lumotlarni ham keltirgan. Darvish Ali Changiyning «Tuhfat us surur» musiqiy risolasida aytishicha, Nayi-ban cholg‘usi XIII asrda yashab o‘tgan musiqashunos olim Safiuddin Abdulmo‘min al Urmaviy tomonidan ixtiro qilingan. U temirchilarning dam beruvchi meshini ko‘rib, mazkur cholg‘uni yasagan ekan<sup>2</sup>. Echki terisidan yasalgan meshning uch tomonidan uchta qamish naycha tiqib o‘rnatilgan bo‘lib, bir naychadan puflab havo to‘ldiriladi. Ikkinci naycha olti teshikli bo‘lib, asosiy kuy shu naychada chalinadi. Uchinchi naycha faqat bir ohang (tovush) chiqaruvchi bo‘lib, asosiy nayga jo‘rnavoz hisoblanadi. Nayi-ban Xorazmshohlar davrida to‘y, sayil, harbiy yurish va boshqa marosimlarda chalingan. Jaloliddin Manguberdining harbiy yurishlari davrida u ko‘pchilik xalqlar orasida tarqalgan bo‘lib, Sharqi Ovro‘pada volinka, ojarlarda chiboni, ozarbayjonlarda tulum, osetinlarda lalim, chuvashlarda sarnay va shunga o‘xhash nomlar bilan atalgan. Mazkur soz hozirgi davrda Fransiya hukumati faxriy qorovullarining ramziy cholg‘usi sifatida qo‘llaniladi.


Bu davrda shaharlarning rivojlanishi turli hunarmandlar va kasb egalarining do‘kon (forscha – manzil, qo‘nimgoh, uyushma)lari vujudga kelishi bilan mehtarlik (mehtar – forscha boshliq, zabit, rahbar) qo‘shlari, guruhlari paydo bo‘ladi. Ularning tarkibi uch nafar (surnay, karmay, doyra) dan to o‘n besh nafargacha bo‘lgan sozandani o‘z safiga birlashtirgan.

## Xulosa

<sup>1</sup> N.Shodmonov. Musiqa bu uyg‘onish demak // «Tafakkur», T., 1993. 3-son, 36-39-b.

<sup>2</sup> А.А.Семенов. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али XVII века. Т., 1946. 20-с.

Mehtarlar ochiq havoda chalinadigan cholg‘u ijrochilaridan tashkil topgan. Ularning vazifasi kuchli musiqiy tovush-sas, dabdaba va as’asa bilan dushmanaga dahshat solish, lashkarlarga ruhiy madad berish, kuy chalib xalqni jang boshlanganidan, qo’shining qaytib kelishidan, g‘alaba tantanasidan, xonning chiqishidan va boshqa voqeа hamda bayram, sayil va to‘y tadbirlaridan ogoh etishdan iborat bo‘lgan. Mehtarlar o‘z cholg‘ulari imkoniyatiga yarasha turli navbalar chalishgan va ular navbatи murattab deb ham atalgan (navba arabcha – kuylar turkumi, navbati bilan chalinadigan, tartiblashtirilgan asarlar). Ayniqsa Xorazmshohlar davrida navbalar chalish an’anasi juda rasmiy tus olgan. Buning sababi Sultonmuhammad Olovuddin Xorazmshohning o‘zi ham ud cholg‘usida mashq qilish va shatranj o‘ynashni juda xush ko‘rar, udda navbalar chalib o‘zini sozlagandan keyingina arzxonaga chiqib fuqorolar arzini tinglar ekan. Shuning uchun ham o‘sha davrda musiqa san’ati bilan birgalikda mehtarlik ancha rivoj topgan. Damli va zarbli cholg‘ularning harbiy yurishlardagi ahamiyatini barcha sarkarda va lashkarboshilar yaxshi bilganlar. Dushmanni faqat lovu-lashkar, nayza, qilich, yoy bilan emas balki, uning yuragiga qulog‘i orqali tovush-sas bilan dahshat va g‘ulg‘ula solish yo‘li bilan urushda g‘olib chiqishda karnay va nog‘oralarning o‘z o‘rnini borligini tan olganlar. Ammo inson hayotida harbiy yurishlardan ko‘ra to‘y, bayram va sayillar ko‘proq bo‘lgan, «Navro‘z», «Mehrjon», «Mina», «Qizil gul» kabi bayram va sayillaridagi ommaviy teatrlashgan raqs o‘yinlarida ochiq havoda chalinadigan damli cholg‘ular ularga jo‘r bo‘lganligini, bunday marosimlarda xalqni yig‘ish, ularga xush kayfiyat bag‘ishlash, ruhini ko‘tarish kabi ezgu amallarni bajarishda qo‘l kelganligini e’tirof etish mumkin.



Shuningdek, damli cholg‘ular nafaqat ochiq havoda balki saroydagи bazmu-tarab chog‘ida qo‘llanilganligini qadimgi miniatyuralardan ham bilishimiz mumkin. Bunda torli cholg‘ular bilan jo‘rlikda ularning ovoziga mos keladigan damli cholg‘ular ham qo‘llanilgan. Yuqoridaqи «Sozandalar bilan bazm» deb nomlangan miniatyurada daf va ud bilan birgalikda qadimgi turkiy

quray cholg‘usi ham tasvirlangan. O‘rta asrlarga kelib dehqonchilikning rivojlanishi, shaharlarda buniyodkorlik ishlari, Movaraunnahr va Xurosonda adabiyot hamda san’at rivojiiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

**ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Аспелунд Д., “Развитие певца и его голоса” Москва–Ленинград, 1952.
2. Axmedov M., “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” Toshkent, 1974 yil.
3. Babskiy E.B., Glebovskiy V.D., Kogan A.B..“Fiziologiya cheloveka”, Tibbiyot institutlari uchun o‘quv qo‘llanma, Moskva, 1984 yil.
4. Багадуров В. “Очерки по истории вокальной методологии” 2– нашр, Москва, 1956.
5. Баранек Л. “Акустические измерения” Москва, 1952.
6. Баранвский П., Ютсевич Э. “Звуковыстний анализ свободного мелодического строя” Київ, 1956.
7. Барсов Й. “Вокально–исполнительские и педагогические принципы” Ленинград, 1968.
8. Begmatov E., Tursunpo‘latov M., “O‘zbek nutqi asoslari” Toshkent, 1992 yil.
9. Begmatov S. “Hofizlik san’ati” Toshkent, 2007 yil.
10. Begmatov S. “Orifxon Hotamov” Toshkent, 2000 yil.
11. Беляев В., “Музикальная фольклористика в Узбекистане” Тошкент, 1963.
12. Фоурбеков Т.Б. “Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества” Тошкент, 1984.
13. Голубев П.В., “Советы молодым педагогам – вокалистам”, Москва, 1963.
14. Hamidov H. “O‘zbek an’anaviy qo‘schiqchilik madaniyati tarixi” Toshkent, 1996 yil.
15. Hamidova M.A., Ibroqimov O., Mulajonov D., “Xonandalik san’ati, Jahon va O‘zbek milliy an’analari”, Toshkent, 2009 yil.
16. Ibroqimov O. “Sahih suvoriylar” Toshkent, 2004 yil.
17. Иброхимов О., “Фергано-Ташкентские макомы” Тошкент, 2006.
18. Jabborov A.H. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, 2004 yil.
19. Jalilov A. “Kommuna Ismoilova” Toshkent, 2009 yil.
20. Jumaniyozov R., “Qadimiy Xorazm tarixi” Urganch, 1993 yil.
21. Kaykovus “Qobusnama” Fors tilidan Muhammad Rizo Ogaqiy tarjimasi, nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov, Toshkent, 2006 yil.
22. Koncheva I., Yakovleva A., “Vokalniy slovar” luqat. Leningrad, 1986 yil.
23. Лапис Г.А., “Здоровье всей семьи” Санкт-Петербург, 2003.
24. Mannopov S. “So‘nmas Navolar” Farg‘ona, 2002 yil.
25. Matyoqubov B., “Doston navolari” Toshkent, 2009 yil.
26. Matyoqubov O., “Maqomot” Toshkent, 2004 yil.
27. Matyusupov E. “Ustozni eslab” Urganch, 2007 yil.
28. Nazarov A., “Farobiya va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida” Toshkent, 1995 yil.
29. Olimboeva K., Ahmedov M., “O‘zbekiston xalq sozandalar” Toshkent, 1959 yil.
30. Привес М.Г., Лисенков Н.К., Бушкович В.И., “Анатомия человека” Москва, 1985.
31. Rajabov I. “Maqomlar” (nashrga tayyorlovchi O.Ibroqimov) Toshkent, 2006 yil.
32. Rajabov I., “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963 yil.
33. Rasulov O‘., “An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2006 yil.
34. Salixov B.S.va Matyoqubov B.J., “O‘zbekistonda damli va zarbli cholg‘ular ijrochiligi tarixi”, Toshkent, 2007 yil.
35. Визго Т. “Развития музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой” Москва, 1970.
36. Юлдашева С.Х., “Развитие музыкального воспитания и образования в Узбекистане” Тошкент, 1979.

37. Yunusov R., Mamadaliev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" Toshkent, 2001 yil.
38. Yunusov R.Y. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (ilmiy–uslubiy tavsiyalar) Toshkent, 2000.
39. Xojimamatov A. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНинг НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.*
40. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TEXNOLOGIYASINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation, 1(C2)*,
41. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation, 1(3)*,
42. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований, 2(11)*,
43. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественно-научных и социальных проблем: материалы XVIBсерос, 131*.
44. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History, 18*,
45. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation, 2(C7)*,
46. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation, 2(C7)*,
47. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2)*, 254-266.
48. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1)*.
49. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1)*.
50. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje., 34*,
51. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje., 34*,
52. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5)*,
53. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation, 1(4)*,
54. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation, 1(4)*,
55. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8*,
56. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2)*,
57. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10)*.

58. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
59. Achildiyeva, M.,& Ikromova, FTHE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456–5083
60. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsabqlari:" Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
61. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage*Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)
62. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
63. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., &Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
64. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
65. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
66. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
67. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
68. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
69. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
70. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
71. Xojimamatov A. Atkiyoeva R.“VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287
72. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
73. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “*An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal*” 2 (4)
74. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683
75. Achildiyeva M,Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)